



ERTA TA'LIM BERISHNING AHAMIYATI

Eshkuziyeva Mohira Raimqul qizi

Sirdaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi

Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi

Maktabgacha ta'lim bo'yicha metodist

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda erta ta'lim tizimiga alohida e'tibor berilayotganligi va uning rivojlantirish uchun qilinayotgan ishlar haqida so'z boradi. Bundan tashqari erta ta'limni tashkil qilmoqchi bo'lgan ota-onalarga tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekistondagi maktabgacha ta'lim muassasalari, Janubiy Korea maktabgacha ta'lim tizimi, erta ta'lim, o'quv dasturlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, erta rivojlanish.

Xabaringiz bor so'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi bilan Janubiy Koreya o'rtasidagi hamkorliklar imzolanmoqda, ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasidagi hamkorlikka alohida e'tibor berildi. Bu uyg'un hamkorlik nafaqat har ikki mamlakatning ta'lim tizimini boyitibgina qolmay, balki ushbu ikki yurtning madaniyati va an'alarini chuqurroq tushunishiga ham yordam beradi.

Ushbu hamkorliklarning asosiy omillaridan biri erta yoshdagi bolalarga yuqori sifatli ta'lim berish bo'yicha umumiy majburiyatdir. Janubiy Koreya maktabgacha ta'lim tizimi innovatsion va yaxlit yondashuvi bilan mashhur bo'lib, o'yinga asoslangan ta'lim, ijtimoiy-emotsional rivojlanish va erta savodxonlik ko'nikmalariga urg'u beradi.



Yurtimizda ham har bir bolaning sifatli erta ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga intilmoqda.

O'zaro hamkorlik va almashinuv dasturlari orqali O'zbekiston Janubiy Koreyaning erta bolalar pedagogikasi va o'quv dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha tajribasidan foydalandi. Janubiy koreyalik pedagog va ekspertlar yurtimizda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar bilan hamkorlikda O'zbekistondagi maktabgacha ta'lim muassasalarida ilg'or tajriba, innovatsion o'qitish usullari va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etib borishmoqda. Ushbu madaniyatlararo almashinuv nafaqat yurtimizda erta yoshdagi bolalarga ta'lim sifatini oshirish, balki Koreya ta'lim qadriyatlari va an'alarini chuqurroq qadrlashga yordam berdi.

Janubiy Korea dasturlariga ko'ra ota-onalarning erta bolalik ta'limida ishtirok etishi muhimligini ta'kidlanadi. Ota-onalarga ularning farzandlarining ta'lim olishi va rivojlanishidagi roli muhimligini tushuntirish, uy va maktab hamkorligini mustahkamlash bo'yicha qo'shma tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Masharu Ibuka o'zining "Uchdan keyin kech" asarida bolalarning aqliy qobiliyatlarining asosiy kaliti sifatida birinchi uch yillikda, ya'ni miya hujayralarining rivojlanish davrida olgan shaxsiy tajribasini keltirib o'tgan. Bolaning 3 yoshigacha uning qobiliyati va fe'l-atvori deyarli shakllanib bo'ladi. Shuning uchun ham Masaru Ibuka erta ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida "Yaponiyada erta rivojlanish uyushmasi" hamda "Iqtidorlarni o'qitish" maktabini tuzadi. Erta ta'lim orqali bolalar rivojlanishining yangi nazariyasini olg'a surgan.

Xo'sh, erta ta'limning mazmuni qanday? Erta ta'lim berish bu bolalarga harflar, raqamlar va boshqa ma'lumotlarni majburan o'rgatish degani emas, albatta. Bolaning hayoti davomida duch keladigan vaziyatlari, uyushtirilgan o'yinlar orqali olib boriladi. O'rganish shuningdek, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bunda mashg'ulotlarni aniq bir vaqtda tartib bilan



o'tish majburiy emas, balki bolaning hamda onaning vaziyatini inobatga olgan holda tuzish va o'tish mumkin. Erta ta'limni tashkil etadigan asosiy kishi bu ona hisoblanadi. Buni esa eng katta yutuq deb hisoblasak bo'ladi. Otalar ham bolalarning ta'limini qo'llab-quvvatlashda ahamiyatli rol o'ynaydi. Oila bolalarga sevgi va qo'rqmaslik atmosferasi yaratish orqali ularning o'rganishiga motivatsiya berishadi. Oila bolalarga o'qish, yozish, hisob-kitob va boshqa o'quv mashg'ulotlarida yordam berish bilan birgalikda, ularga qulay va motivatsiyali muhit yaratishda muhim rol o'ynaydi. Bolalarga adolatli va sekin o'rganish imkoniyatini berish, ularning o'zlashtirish va o'rganishning muhimligini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, oilalar, bolalariga o'z fikrlarini ifoda qilish, ularning o'zlashtirish va o'rganish jarayonida o'ziga ishonchni oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Oila bolalarning ta'limining muhim hamkoridir. Ko'pgina erta yoshdagi bolalarni rivojlantirish bo'yicha mutaxassislarning fikriga ko'ra, agar bolalar majburlanmagan bo'lsa, yaxshiroq o'rganadilar.

Ota-onalar uchun tavsiyalar:

Yuqorida aytib o'tilgandek erta ta'lim berishda asosiy ma'suliyat ota-onalarda hisoblanadi. Shuning uchun ham bolalarga tarbiya berishda birinchi o'ringa faqatgina "nazoratga olish"ni qo'yish emas balki, o'zingizni nazorat qila olishingizni qo'yishingiz lozim. O'zingizni nazorat qila olsangiz, bu sizning ota-onalik vazifangizni 80% ni bajara olgan hisoblanasiz. Chunki siz bolaga g'azablanib baqirsangiz bola o'ziga nisbatan ishonchsizlik hissi paydo bo'ladi.

Bolalarga beradigan eng qimmatli narsamiz vaqtimiz va e'tiborimiz bo'ladi. To'g'ri ishlarimiz va tashvishlaringiz ko'p, xayolingiz har joyda, uning ustiga telefon sizni chalg'itadi. Tasavvur qiling, uyda televizor yoniq, qo'lingizda telefon, uning ustiga ovqat qilyapsiz, ovqatni kovlab bir telefonga qarab qo'yasiz va yana nimalar bilandir bandsiz. Shu tobda bolangiz sizdan nimadir so'raydi va unga ishlaringiz ko'pligini aytasiz. Savollari javobsiz qoladi. Bunday holat kun bo'yi, haftalab, oylab, yillab davom etishi mumkin.



Shuning uchun imkon qadar xayolni jamlab, fikrni chalg'ituvchi omillarni cheklab hech bo'lmasa 20 minut bolangizga bo'linmangan e'tibor berib ko'ring, uni tinglang, shunchaki gaplashing, o'shanda bog'lanishni his qilasiz, unda ham qoniqish bo'ladi. Bo'lmasa ota-onasidan e'tibor ko'rmagandan keyin u ham bor e'tiborini kompyuter o'yinga yoki boshqa narsalarga berib, ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi so'na boshlaydi.

1. Farzandingiz qiziqishini inobatga oling, u qaysi sohada yaxshi faoliyat olib borayotgani biling. Nafaqat u o'zi yoqtirgan balki boshqa sohalardan orqa qolmaslik uchun ko'maklashib boring.
2. Erta ta'limni o'rgatishning asosiy jarayonlari o'yinlar orqali amalga oshiriladi. Shuni inobatga olgan holda qiziqarli o'yinlar izlab topishdan charchamang. Yangi o'yinlar bolaning e'tiborini tortishi aniq va har yangi o'ylab topgan o'yiningiz orqali yangi bilimlarga ega bo'lib borsin.
3. Farzandingizga siz bilan mehnat faoliyatini olib borishiga ruhsat bering. Shunda uni yoshligidan mehnatga bo'lgan muhabbatini rivojlantirasiz. Mehnat qilayotgan jarayonida unga har bir narsalar nomini, atrofdagi holatlarning mazmunini so'zlab bersangiz nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Butun dunyoga tozalik bo'yicha mashhur yurt Yaponiyada bolalar boshlang'ich sinflardanoq jamoaviy mehnatlar, odamlar bilan muloqot qilish, axloqiy tarbiya sohalarda o'qitila boshlaydi. Bu orqali bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni osonlashishi, kelajakda bilim olish faoliyati yaxshilanishi, ma'suliyatli bo'lishni o'rganishiga ishonishadi va ular haq.

YUNESKO Bosh direktori Odri Azule ta'kidlaganidek: "Erta yoshdagi ta'limga sarmoya kiritish - barcha bolalarga hayotni adolatli boshlash va ta'limning mazkur boshqichida tengsizliklarga qarshi kurashish uchun mamlakat amalga oshira oladigan eng samarali investitsiyasidir. Bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlash, ularning hayoti davomidagi ta'lim jarayonida ravnaq topishiga zamin yaratish juda muhim". Bu so'zlar naqadar to'g'ri ekanligi yillar davomida o'z isbotini topib kelmoqda. Mana so'ngi yillarda



yurtimizda ham erta ta'limga bo'lgan talab oshib bormoqda. Men shaxsiy izlanishlarim davomida homeschooling yaratib farzandlari bilan birgalikda yuqori natijalarni qayt etayotgan onalarni uchratdim. Ular nafaqat o'zlari balki boshqa onalarga ham maslahatlar berib bormoqda. Ta'lim berishni erta yoshdan boshlash va eng muhimi bolani bezdirmasdan, o'zining shaxsiy fikriga ega bo'lgan, kelajakda yuqori natijalarga erisha oladigan farzand bo'lib yetishtirish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Masaru Ibuka "Uchdan keyin kech" T.: Akademnashr 2019.
2. <https://uzbekistan.un.org/uz/206419-yunesko-butunjahon-konferentsiyasi-erta-yoshdagi-bolalar-tarbiyasi-va-ta%E2%80%99limga-sarmoyalarni>
3. https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/862